

# 2025

---

## 5-MART



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining  
[www.edu.uz](http://www.edu.uz)



Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti  
[www.tift.uz](http://www.tift.uz)



## OLIY TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOG - MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
MATERIALLARI TO 'PLAMI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT XALQARO MOLIYAVIY BOSHQARUV VA  
TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**Pedagogika va psixologiya kafedrasи**

**«OLIY TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOG - MUTAXASSISLAR  
TAYYORLASHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI»**

mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami

(Toshkent, 2025 yil 5 mart)

...

**«OLIY TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOG - MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI»** mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari to‘plami // Toshkent, 2025-yil 5 mart. - Toshkent: TIFT universiteti, 2025. - 301 b.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi «2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 490-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash hamda oliy ta’lim tizimida psixolog-mutaxassislarini tayyorlashning zamonaviy tendensiyalarini muhokama qilish, unda xorijiy va mahalliy mutaxassislar, professor-o‘qituvchilar, talabalar va tadqiqotchilar, tegishli soha mutaxassislarning ishtirokini ta’minlash, fan yutuqlarini respublikamiz ta’lim sohasiga tatbiq qilish maqsadida Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti tomonidan 2025-yil 5-mart kuni «Oliy ta’lim tizimida psixolog-mutaxassislar tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari» mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiysi o‘tkazildi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining maqsadi – oliy ta’lim tizimida psixolog-mutaxassislar tayyorlash jarayonining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish, xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda psixologik ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Konferensiya da psixologiya ta’limi sohasidagi yangi metodologiyalar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, zamonaviy psixodiagnostika va psixokorreksiya usullari, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, oliy ta’limda psixologik ta’lim mazmuni va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, mehnat bozori ehtiyojlariaga mos ravishda mutaxassislar tayyorlashning strategik yo‘nalishlari tahlil qilindi.

**Tahrir hay’ati:**

**S.R. Sadriddinov** - Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**R.X. Dushanov** - Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi professori v.b., psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

**F.I. Haydarov** - Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi professori, psixologiya fanlari nomzodi, professor

**P.Q. Xolmatov** - Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**S.Yu. Ahrorov** - Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti v.b., sotsiologiya fanlari nomzodi (PhD).

**F.J. Ro‘ziyev** - Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**O.V. Kon** - Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari nomzodi.

**Sh.M. Tadjibayeva** - Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti v.b., psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifati, ma’lumotlarning to‘g‘ri va aniqligiga muallif(lar) javobgardir.

© Oliy ta’lim tizimida psixolog-mutaxassislar tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari

## OTA-ONALAR VA FARZANDLAR O'Rtasida OCHIQ MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH

*Burxanova Mayjuda Bekbutayevna*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi ochiq muloqotni shakllantirishning psixologik asoslari, ijtimoiy ahamiyati va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Ochiq muloqot oilaviy muhitda ishonchli va sog'lom munosabatlarni barpo etishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotda oila a'zolari o'rtasida samarali kommunikatsiyani rivojlantirish usullari, yoshga oid psixologik xususiyatlar va kommunikativ to'siqlarni yengish yo'llari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** oila psixologiyasi, ochiq muloqot, ota-onalar, farzandlar, ishonch, tarbiya, emotsiyal intellekt, kommunikatsiya.

Ona-onsa va farzandlar o'rtasidagi ochiq muloqot masalasi pedagogika va psixologiya fanlari nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lib, ayniqsa, O'zbekiston sharoitida oilaning ijtimoiy va hissiy muhitini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Ochiq muloqot — bu ota-onalar va farzandlar o'rtasida o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini erkin va adoliyatli almashishga asoslangan jarayon bo'lib, u orqali bolalar o'zini qadrlash, ijodiy va psixologik salohiyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bugungi kunda pedagogik VU3larda o'qitimlayotgan psixologiya yo'naliishi bo'yicha iqtidorli bo'lgan talabalar uchun bu mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Chunki zamonaviy oilalarda ota-onalarning muloqot uslubi, yosh avlodning o'sishi va shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ochiq muloqotni shakllantirishda ota-onaning emotsiyal intellektini rivojlantirish, farzandlarning his-tuyg'ularini tinglash mahorati, ijobiy psixologik muhit yaratish muhandislik kabi aniq metodologik yondashuvlar talab etiladi. Shu bois, muallif ushbu maqolada ochiq muloqotning nazariy asoslari, pedagogik shakllantirish usullari, xalqaro va mahalliy psixologik tadqiqotlar misollari asosida chuqur tahlilni ko'zda tutadi. Ota-onaning o'zaro ishonch va fikr almashish muhitini yaratishi farzandlarda psixologik barqarorlik, motivatsiya va ijtimoiy moslashuvni mustahkamlaydi. Ushbu tadqiqot, shuningdek, O'zbekistondagi oilaviy-psixologik an'analar va pedagogik amaliyotni hisobga olgan holda, muloqot strategiyasini samarali yo'llarini aniqlashni maqsad qiladi. Ochiq muloqotni shakllantirish oilaviy munosabatlarda ishonchli va barqaror psixologik muhit yaratishning muhim shartidir. Ota-onalar farzandlari bilan ochiq va samimiy muloqotda bo'lishi, ularning fikrlarini tinglashi, his-tuyg'ulariga hurmat bilan yondashishi orqali sog'lom tarbiya tamoyillarini amalga oshirishlari mumkin. Bunday muloqot farzandlarda o'zini

ifoda qilish, qaror qabul qilish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va emotsiyal barqarorlikni ta'minlaydi.

Psixologik nuqtai nazardan, farzand bilan samarali muloqot qilishda ota-onaning emotsiyal sezgirligi, tinglay olish mahorati va baholamaslik yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Farzand bilan suhbatda tanqid yoki buyruq ohangida emas, balki tushunish va qo'llab-quvvatlash asosida muloqot olib borish muloqot samaradorligini oshiradi. Bu esa farzandning o'z fikrini erkin ifoda etishiga, xatolaridan qo'rmasligiga va ota-onaga nisbatan ochiqligiga olib keladi.

Bundan tashqari, farzandning yoshi, shaxsiy fazilatlari, temperamentiga mos kommunikatsion yondashuvlarni tanlash ham muhim. Masalan, o'smir yoshdag'i farzandlar bilan muloqotda ularning mustaqillik istagini e'tiborga olish, ular bilan maslahatlashib qaror qabul qilish, o'zaro hurmat muhitini yaratish kerak bo'ladi. Shu bilan birga, farzandlar bilan doimiy suhbatlar tashkil etish, ularni turli oilaviy muhokamalarga jalb qilish, muloqot vositalaridan (masalan, o'yinlar, hikoyalar, birlgilidagi mashg'ulotlar) foydalanish ochiqlikni mustahkamlaydi.

Muloqotdagi asosiy to'siqlar — bu e'tiborsizlik, vaqt yetishmasligi, haddan tashqari nazorat, emotsiyal sovuqlik va psixologik masofaning mavjudligidir. Bunday to'siqlarni bartaraf etish uchun ota-onalar o'zlarining kommunikativ ko'nikmalarini muntazam rivojlantirib borishlari, farzand bilan sifatli vaqt o'tkazishlariga e'tibor qaratishlari lozim. Shu yo'l bilan oilaviy muloqotda ochiqlik va o'zaro ishonchga asoslangan ijobiy psixologik muhit yaratiladi.

Ota-onalar va farzandlar o'rtasida ochiq muloqotni shakllantirish oilaviy muhitning psixologik barqarorligi, farzandning sog'lom rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi uchun muhim omildir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ochiq muloqot mavjud bo'lgan oilalarda farzandlar o'zini erkin his qiladi, o'z fikrini ochiq bildira oladi, ota-onaning yo'riqlari va maslahatlarini qabul qilishga tayyor bo'ladi. Aksincha, muloqot yetarli bo'lмагan oilalarda esa farzandlarda ishonchsizlik, ijtimoiy chetlashuv, tajovuzkorlik yoki ichki yopiq holatlar kuzatiladi.

Shu sababli, pedagogik va psixologik amaliyotda ochiq muloqotni shakllantirish bo'yicha maxsus metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi, ota-onalar bilan muntazam tarbiyaviy va psixologik ishlar olib borilishi lozim. Bunday yondashuvlar o'z ichiga treninglar, suhbatlar, maslahatlar va oila psixologi bilan ishlash kabi ko'rinishlarni olishi mumkin.

Yakun qilib aytganda, farzand tarbiyasida ochiq muloqot nafaqat o'zaro ishonch va mehr muhiti yaratadi, balki shaxsiy mas'uliyat, o'zini anglash, empatiya kabi muhim psixologik sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois bu masala pedagogik VU3larda psixologik tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida o'rganilishi va rivojlantirilishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva, D. (2021). *Oila psixologiyasi asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimov, N. (2020). *Yosh psixologiyasi va tarbiya asoslari*. Samarqand: Ilm ziyo.
3. Sharipova, M. (2019). Ota-onalar va bolalar o'rtaida muloqotning psixologik jihatlari. *Pedagogik mahorat* jurnali, №2, 45–49.
4. Ergashev, B. (2018). Farzand tarbiyasida ota-onanining kommunikatsion yondashuvi. *O'zbekiston psixologiyasi* jurnali, №4, 12–17.
5. Xoliqova, Z. (2022). Zamonaviy oilalarda emotsional intellekt va muloqot strategiyalari. *Psixologiya va hayot ilmiy-amaliy* jurnali, №1, 29–34.

<b>72.</b>	<i>Azimjonova Sevara Sadriddin qizi Komilova G.T.</i>	<i>Omonimlar</i>	319-322
<b>73.</b>	<i>Azimjonova Sevara Sadriddin qizi Saidov Olmas</i>	<i>Til sathlari</i>	323-325
<b>74.</b>	<i>Safarboyeva Sevinch Hamid qizi Komilova G.T.</i>	<i>Otning grammatik kategoriyalari</i>	326-328
<b>75.</b>	<i>Saparbaeva Feruza Ilhom qizi Ataboyeva Ruxshona Asadullo qizi Sabitova T.</i>	<i>Mahmudxo'ja Behbudiyl tafakkur va taraqqiyot darg'asi</i>	329-332
<b>76.</b>	<i>Ataboyeva Ruxshona Asadullo qizi Komilova. G.T.</i>	<i>Monosemantik va polisemantik so'zlarning lug'aviy tizimdagи o'rni va funksional xususiyatlari</i>	333-336
<b>77.</b>	<i>Saparbaeva Feruza Ilhom qizi Komilova. G.T.</i>	<i>Omonimlar</i>	337-340
<b>78.</b>	<i>Raxmatova Nargiza Abdinazarovna Joldasova Ayman Quralbay qizi Kamalbekova Jasmina Muxammadali qizi Mutalova Feruza Baxit qizi</i>	<i>4-5 Yoshli bolalarda harakat faoliyatini rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining o'rni</i>	341-343
<b>79.</b>	<i>Raxmatova Nargiza Abdinazarovna Nazarbekova Sapargul</i>	<i>5-6 Yoshli bolalarda mushak kuchi va chidamlilikni shakllantirish metodikasi</i>	344-346
<b>80.</b>	<i>Raxmatova Nargiza Abdinazarovna Sholpanova Aygerim</i>	<i>Maktabgacha yoshdagи bolalarda jismoniy rivojlanishni baholash va monitoring qilish tizimi</i>	347-351
<b>81.</b>	<i>Aйтжанова Гульнара Турмахановна Жайлай</i>	<i>Психологиялық қолдау орталығындағы қарымқатынасты дамыту тәжірибесі</i>	352-355
<b>82.</b>	<i>Burxanova Mavjudा Bekbutayevna</i>	<i>Ota-onalar va farzandlar o'ttasida ochiq muloqotni shakllantirish</i>	356-358
<b>83.</b>	<i>O'tkurova Xadicha To'lqin qizi Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna</i>	<i>Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda pedagog va oila hamkorligining ahamiyati</i>	359-363